



MILLIY MUSIQIY MEROSNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Husainova
Gulchehra**

*Qo'qon Davlat universiteti musiqa va san'at
yo'nalishining 1- bosqich magistrati*

**Nosirov
Dilmurodjon**

Qo'qon Davlat universiteti datsenti

Annotasiya: Ushbu maqolada milliy musiqamizni yoshlarga o'rgatishning dolzarbligi, bu borada o'tgan asrning boshlaridagi ziyolilarning fikrlari yoritiladi. Milliy musiqamizni yoshlarga o'rgatish, targ'ib qilishning ulmiy ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, milliy va badiiy an'analar, taraqqiyparvar ziyolilar, pedagog—ma'riparvarlar, Fitraf, G'ulom Zafariy asarlari, milliy musiqa va unga qiziqish, milliy musiqani o'rgatishning ilmiy ahamiyati.

Yoshlarning bilim darajasini rivojlantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish, rihiy tarbiya berish doimo ta'lim oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bu borada adabiy merosimizni o'rganish katta o'rin tutadi. Milliy mustaqillik mafkurasi o'tmish adabiy merosimizga yangicha nazat bilan qarashni o'rgatdu. Chunki mumtoz adabiyitimiz namunalari yosh avlodni ma'naviy kamolotida muhim ahamiyatda egadir.

O'zbek xalqining boy va serjilo merosining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy-ijodiy o'zlashtirish borasida o'tgan asrda anchagina yutuqlar qo'lga kiritildi. Keyingi vaqtlarda milliy qadriyatlarimizni tiklash va uni o'rganish borasidagi qilingan va qilinayotgan ishlar bunga shahodat beradi. Bu ishlarni uzluksiz davom ettirish uchun yosh avlodni milliy merosimiz bilan yaqindan tanishtirib borish hozirgi zamon pedagogikasining asosiy vazifalardan biridir. Bu borada o'rta-ummumta'lim maktablari, madaniyat va san'at kollejarida, oliy o'quv yurtlarida o'zbek milliy va mahalliy badiiy an'analarni mukammal o'zlashtirish, musiqiy-badiiy qonuniyatlarini chuqurroq o'zlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr)¹ O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Qonunda ta'limning uzluksizligi, insonparvarligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi kabi muhim tamoyillar mustahkamlangan. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, ta'lim

¹ Ta'lim to'g'risidagi qonun 2020 y. 23 sentabr. Umumiy qoidalar. II. III bo'limlar <https://lex.uz/docs/-501300>

sifatini oshirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Musiqa ta'limiga oid davlat ta'lim standartlarida talaba-yoshlarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, milliy va jahon musiqiy merosini bilish va tahlil qila olish kompetensiyalari muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, DTSda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va mustaqil ta'limni tashkil etish zarurligi ta'kidlanadi.

O'tgan asrning boshlaridagi o'zbek taraqqiyparvar ziyolilarining ko'zga ko'ringan vakillari - Fitrat, Cho'lpon, Sadridin Ayniy, G'ulom Zafariy, Hamza, Muhiddin qori Yoqubov kabi mashhur shoir, yozuvchi, pedagog-ma'rifatparvarlarning qator maqolalari va risolalarida o'zbek mumtoz musiqa madaniyati, ayniqsa, milliy musiqa merosiga munosabati o'z aksini topgan.

Jumladan, Fitratning Ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo musiqa ilmining tarkibiy tuzilishi, fan predmeti, tadqiq usullari mufassal yoritib berilgandi.

G'ulom Zafariy ijodiy merosining ham asosiy qismi o'zbek milliy musiqasi va uning tarixi tadqiqiga bag'ishlanadi. Sadridin Ayniy bo'lsa, o'z maqolalarida Ota Jalol, G'iyos, qori Kamol, qori Najmlarning o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini tariflaydi. Eng ahamiyatli tomoni, Chig'atoy Gurungining faollaridan va "Ko'mak" jamiyatining a'zosi bo'lgan Sayyid Ali Usmonxo'jaev o'zbek milliy musiqiy merosini asrab-avaylash masalasini birinchilardan bo'lib ilgari suradi. U o'zining "Endigisini qo'ldan bermaylik" nomli maqolasida, bunday yozadi: "Hozir Toshkenda Turkiston musiqasiga butun vujudi bilan berilgan musiqa professori Uspenskiy bor. Bu o'zida bo'lgan iqtidorini, ilm o'quv butun kuchini Turkiston musiqasiga bergan. To'g'risini aytganda, bu kishi Turkiston musiqasining majnuni".²

Moskvada tahsil Olgan Sulaymon yozadi: "Boshqa xalqlarnikiga qaraganda oz bo'lsada ko'proq bizning ham ota-bobobolarimiz va eski zamonlardan qolgan ko'pgina kuylarimiz, ashullalarimiz bordirki, bu kunda ularning ko'plari unutilib ketmoqda ... Milliy kuylarimizning qadr-qimmatini bilgan Ovro'po musiqashunoslari bugun bizning kuylarimizni xususiy suratda notaga olmoqdalar. Muhiddin qori Yoqubiy, G'ulom Zafariylardan foydalanib Mirovning chiqargan "Sharq notalari" bunga ochiq shohiddir.

Turkistonda boshqa ko'p ishlar qatorida bizning kuylarimiz, milliy qo'shiqlarimiz ko'zga olinmayin unutilib yotadur. Ular uchun musiqa kuy maktablari, konservatoriyalar yo'qdir ". Boshqa bir musiqa bilimdoni G'.Zafariy fikricha, "cholg'u kuylarimizning" Olti maqom " degan ilmiy tartiblik bo'limi yo'qolayozgan".³

Keyinroq Fitrat bu boradagi fikrlarini bayon etib, quyidagilarni ta'kidlaydi. "... Bizning musiqaning bugungi ustodlari orasida uning Nazariy tomonlarini biladigan kishilar yo'q. Ular ishning bu tomonlariga o'noshmoq istamaylar. Buning uchun bir ko'p o'nglig' harakatlarga zabab bo'ladirlar. Qanday kuylarni qanday o'rnlarga munosib tushgani to'g'risida fikr bildirmaydilar. Bizning bugungi musiqa ustodlarimiz cholg'ularning bir biriga munosabati to'g'risida ham katta yanglishliklar ko'rsatadilar. Bir Tanbur bilan bir dutor topilsa darhol g'ichchak bilan g'ang g'ang qo'shadilar.

² Sayyid Ali Usmonxo'jayev "Endigisini qo'ldan bermaylik" //Qizil bayroq. 2 fevral 1922, b. 4.

³ G'ulom Zafariy. O'zbek musiqasi to'g'risida // "Alanga" jurnali 1930 y N1.b.10

Holbuki, Bir g'ichchak tovushi Ikki tanburning tovushini yeb qo'yadi. Birgina tanburni bir g'ichchak bilan bir g'anga topshirish u bechorani bo'zub o'ldirishdan boshqa narsa emasdir ".⁴ Bunday fikrlarni Fitrat ham davom ettirib bunday deydi: "Musiqamizning katta kamchiliklaridan biri uning tarqoqligidadir. Musiqamizda Birlik yo'q. Bir kuy Xivada boshqa, Buxoroda boshqa, Farg'onada boshqa, Toshkentda boshqacha cholinadir. Hozirgi texnikumlarimiz ham shul chiziqdan chiqolmay yuradilar. Buni tugatish uchun musiqa texnikumlarimizdan boshlab ishga kirishmoq kerak. Musiqa texnikumlariga ma'orif komissarligi tarafidan umumiy progrom berib, unga kirgan kuylarni notaga olib tarqatib va darslarni bul notaga muvofiq suratda davom ettirishni talab qilish lozim ".⁵

Bundan ko'rinadiki, hamma davrlarda ham milliy musiqani o'rganishga, targ'ib qilishga katta e'tibor berilgan.

Milliy musiqa — xalqning ruhiy-ma'naviy qadriyatlarini, tarixi va estetik tafakkurining uzviy qismidir. O'zbek maqomlari, dostonlari, kuylari, xalq qo'shiqlari va laparlar orqali o'quvchilar ritm, ohangni eshitish va ijodiy tasavvur qilish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Dunyo mamlakatlarida o'zbek milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, yurtimizda 1997-yildan buyon o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" musiqa festivali, 2002-yil asos solinib, 2004-yilga kelib o'tkazilishi to'xtab qolgan va yurtboshimizning tashabbuslari bilan 2017-yildan qayta tiklangan "Boysun bahori" ochiq folklor festivali, 2018-yilning 6-10-sentabr kunlari Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida o'tkazilishi boshlangan "Xalqaro maqom san'ati anjumani". Yurtboshimizning Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risidagi 2018-yil 1-noyabrdagi qaroriga binoan, 2019-yilning 5-10-aprel kunlari Termiz shahrida "Baxshichilik" festivali o'tkazildi va bugunga qadar yurtimizning bir qator viloyatlarida o'tkazib kelinmoqda.

Milliy musiqani yoshlarga o'rgatish, targ'ib qilish o'quv yurtlarida ta'lim dasturlariga va standart talablariga mos kelishi bilan birga, ularning estetik didini, kuchaytiradi, madaniy dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy fikrlashini o'stiradi, milliy o'zligini shakllantiradi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun 2020 y. 23 sentabr. Umumiy qoidalar. II. III bo'limlar <https://lex.uz/docs/-501300>
3. Abdullayeva B. O'zbek xalq musiqasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2015. — 240 b.
4. Usmonov H. Musiqa ta'limining nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 312 b.
5. Saidov U., Xolmatova S. Musiqa pedagogikasi. — Samarqand: Zarafshon, 2020. — 198 b.

⁴ Fitrat Abdurauf. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 197
<http://lib.cspu.uz/index.php?newsid=2558>

⁵ Usha asar

6. Campbell P.S. Teaching Music Globally. — New York: Oxford University Press, 2004. — 265 p.
7. Omonov Q. Musiqa madaniyati o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 204 b.
8. Yusupova M. Musiqa va estetik tarbiya. — Buxoro: Buxoro universiteti, 2021. — 176
9. Ta’lim samaradorligini oshorishning nazariy va amaliy asoslari //(Oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami)
—Toshkent, 2011.—163
10. Sayyid Ali Usmonxo‘jayev, “Endigisini qo‘ldan bermaylik” //Qizil bayroq, 2 fevral 1922, b. 4.
11. G‘ulom Zafariy. O‘zbek musiqasi to‘g‘risida // “ Alanga ” jurnali 1930 y N1.b.10